

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

1-МАХСУС СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ
СПЕЦИАЛЬНЫЙ НОМЕР-1

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES
SPECIAL ISSUE-1



ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES
№ SI-1 (2024) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2024-SI-1>

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:
Сеитов Азамат Пулатович
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:
Сабилова Умида Фархадовна
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

22.00.01–Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Бекмурадов Мансур Бобомурадович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Каланов Комил Куллахматович
кандидат социологических наук, профессор (Узбекистан)
Убайдуллаева Раиса Турсуновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Негматова Шахзода Шухратовна
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Исмаилов Алишер Агзамович
доктор экономических наук, (Узбекистан)

Щепилова Галина Германовна
доктор философских наук, профессор (Россия)
Рожанский Михаил Яковлевич
кандидат философских наук (Россия)
Маматов Нормурат
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Камалова Хатира Сабыровна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Фофуров Низомжон Октябрович
кандидат исторических наук, доцент (Узбекистан)

22.00.02–Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Умаров Абсалом Адилевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Холбеков Абдугани Жуманазарович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Шайхисламов Рафаэль Бадретдинович
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Акулич Мария Михайловна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Каримов Бобир Шаропович
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Сабиров Алишер Сабирович
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Ахмедова Феруза Медетовна
доктор философии по социологическим наукам (PhD)
(Узбекистан)

Антонио Алонсо Марсос
доктор политических наук, профессор (Испания)
Фадеева Любовь Александровна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Виктор Агаджаньян
доктор философии по социологическим наукам (США)
Тагиева Гулсум Гафуровна
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)
Муйдинова Моҳи́ра Муқомжоновна
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)
Ходжаев Собир Джумаевич
доктор философии по социологическим наукам (PhD)
(Узбекистан)
Алимухамедова Нодира Ядгаровна
доктор философии по социологическим наукам (PhD)
(Узбекистан)

22.00.03–Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Аликариев Нуритдин Сапаркариевич
доктор экономических наук, профессор (Узбекистан)
Матибаев Тасполат Балтабаевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Николов Стефан
доктор философии по социологическим наукам, (Болгария)
Бурнашев Рустам Ренатович
кандидат философских наук, профессор (Казахстан)
Пармонов Фарход Ярашевич
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Акрамов Хусан Фуркатович
доктор философии по социологическим наукам (PhD)
(Узбекистан)

Ли Ци
доктор исторических наук, профессор (Китай)
Сухомлинова Марина Валерьяновна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Қаюмов Қахрамон Нозимжонович
доктор философии по социологическим наукам (PhD)
(Узбекистан)
Доспанова Дилара Уракбаевна
кандидат филологических наук, доцент (Узбекистан)
Рахимбаева Дилбархон Абдулхамитовна
кандидат философских наук, доцент (Узбекистан)
Якубов Ильдар Харасович
кандидат политических наук, и.о. доцент (Узбекистан)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

1. Сеитов Азамат РАЗВИТИЕ СОЦИОЛОГИИ В УЗБЕКИСТАНЕ: ОТ ПРОШЛОГО К ПЕРСПЕКТИВНОМУ БУДУЩЕМУ.....	5
2. Sabirova Umida SOTSIOLOGIK MONITORING YARATISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI.....	12
3. Алексеева Виктория КОНЦЕПЦИИ ГЕНДЕРНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ В АНАЛИЗЕ ДИНАМИКИ СОЦИАЛЬНОЙ МОБИЛЬНОСТИ.....	21
4. Kayumov Kaxramon KICHIK SHAHARLARNI ILMIY O'RGANISHNING SOTSIOLOGIK JIHLTLARI.....	30
5. Alikariyeva A'loxon TA'LIM SIFATI BOShQARUVIGA NAZARIY YONDASHUVLAR TAHLILI.....	36
6. Mannanova Nilufar DAVLAT XIZMATCHILARINI MERITOKRATIK YONDOSHUV ASOSIDA TANLASH – JAMIYATDA ADOLAT TAMOYILI QAROR TOPISHINING MUHIM MASALASI SIFATIDA.....	44
7. Mo'minov Zokirjon IJTIMOIY MOBILLIK OMILINI TADQIQ ETISHNING METODOLOGIK JIHLTLARI.....	51
8. Jiyanmuratova Gulnoz YOSHLARNING SIYOSIY INSTITUTLARGA NISBATAN ISHONCHI MUAMMOSI: NAZARIY ASOSLAR.....	58
9. Сеитов Мансур МОЛОДЕЖНАЯ ПОЛИТИКА В ФОРМИРОВАНИИ ЖИЗНЕННЫХ ПОЗИЦИЙ МОЛОДЕЖИ: ОТЕЧЕСТВЕННЫЙ ОПЫТ.....	66
10. Узакова Зарина СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ СОЦИАЛЬНОЙ ЗАЩИТЫ: ОТ СОЦИАЛЬНОЙ К БИОПСИХОСОЦИАЛЬНОЙ МОДЕЛИ ИНВАЛИДНОСТИ.....	74
11. Ziyayeva Xolida AGRESSIV XULQ-ATVORNI O'RGANISHGA QARATILGAN NAZARIYALAR TAHLILI.....	80
12. Imomova Nozimaxon MEHNAT MIGRATSIIYASINI VUJUDGA KELISHI VA TRANSFORMATSIYALASHUVINING IJTIMOIY OMILLARI.....	88
13. Shokirov Shaxrizod HUQUQBULARLIK VA JINOYATCHILIKNI OLDINI OLIHDA JAMOATCHILIK BILAN HAMKORLIKDA ISHLASH.....	93

14. Ixtiyarov Farxod INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH – IJTIMOYIY BARQARORLIK VA TARAQQIYOT OMILI.....	102
15. Akramov Xasan YANGI O‘ZBEKISTONNING SPORT STRATEGIYASINI SHAKLLANTIRISHDA NORMATIV-HUQUQIY BAZASINING SOTSIOLOGIK TAHLILI.....	108
16. Kalanova Sabohat JAMIYATDA AVLODLAR ALMASHINUVI JARAYONLARI IJTIMOYIY HODISA SIFATIDA.....	117
17. Axrorov Zohidjon O‘ZBEKISTONDA IJTIMOYIY HODIM KASBINING JORIY ETILISHI, IJTIMOYIY SIYOSATNING AMALIY NATIJASI SIFATIDA.....	126
18. Xujanov Zafar KAMBAG‘ALLIK SABABLARI VA UNI QISQARTISHGA TA‘SIR ETUVCHI OMILLARI.....	132
19. Turanazarov Umid KASBIY KOMPETENTLIK MOHIYATI VA RIVOJLANTIRISHNING OMILLARI.....	138
20. Kaxarova Nilufar SHAXAR MEGOPOLISIDAGI AYOLLAR MEHNAT MIGRATSIYASINING MUAMMOLARI VA IMKONIYATLARI.....	145
21. Хакимова Анора ОСОБЕННОСТИ РАБОТЫ С МОЛОДЫМИ СПЕЦИАЛИСТАМИ В ОРГАНИЗАЦИИ.....	154
22. A‘zamxonov Saidabzalxon TALABALAR MUSTAQIL TA‘LIM OLIHINI OSHIRISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	163
23. Ro‘zimatov Elbek VOLONTYORLIK HARAKATINING NAZARIY TAHLILI.....	170
24. Masharipov Baxtiyar SHAHAR INFRATUZILMASINING FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI.....	177
25. Muzaffarov San‘atbek VOLONTYORLIK HARAKATI – EZGULIK VAKSINASI.....	185
26. Yo‘ldashev Shoxrux YOSHLAR BUGUNGI KUN RIVOJLANISHI SHAROITIDA MADANIY-HUQUQIY MUHITNING SUBYEKTI VA OBYEKTI SIFATIDA.....	190

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Sabirova Umida,


Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston

Milliy universiteti dotsenti

Sotsiologiya fanlari doktori (DSc)

e-mail:umida-sabirova@yandex.ru

SOTSIOLOGIK MONITORING YARATISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.10800118>

ANNOTATSIYA

Maqolada ta'lim sifatini sotsiologik monitoring qilish jarayonining mohiyati va mazmuni, strukturasi va funksiyalari, turli tizim va shakllari, oliy ta'limni rivojlantirishdagi ahamiyati tadqiq etilgan. Mazkur tushunchaga turli mutaxassislar tomonidan berilgan ta'rif va tavsiflar qiyosiy tahlil etilgan, hozirgi davrning eng so'nggi talab va ehtiyojlariga javob beradigan definitsiya va xarakteristikalar ishlab chiqilgan. Shuningdek, sotsiologik monitoring tizimining nazariy va metodologik masalalari, jadal rivojlanayotgan oliy ta'lim sifatini monitoring qilishning innovatsion usul va yo'llari ilmiy asoslangan. mazkur turdagi monitoringni tashkil etishning usullari, algoritmlari va texnologik vositalar majmuasi tadqiq qilingan. Oliy ta'lim tizimini monitoring qilishning protsessual, bashorat qiluvchi, me'yoriy va raqobatbardoshlik mezonlari, ularning o'zaro aloqadorligi o'rganilgan, oliy ta'lim muassasalari faoliyatini baholovchi har bir mezonni tavsiflovchi parametrlar majmui ilmiy tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: monitoring, sotsiologik, tizim, mezon, nazariy, uslubiy, ta'lim, sifat, innovatsion.

Сабирова Умида,

Доцент Национального университета

Узбекистана имени Мирзо Улугбека

доктор социологических наук (DSc)

e-mail:umida-sabirova@yandex.ru

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ СОЗДАНИЯ СОЦИОЛОГИЧЕСКОГО МОНИТОРИНГА

АННОТАЦИЯ

В статье исследованы сущность и содержание, структура и функции процесса социологического мониторинга качества образования, различные системы и формы, его значение в развитии высшего образования. Были проведены сравнительный анализ определений и описаний, данных этому понятию различными специалистами, а также разработаны определения и характеристики, отвечающие новейшим требованиям и потребностям современности. Также научно обоснованы теоретические и методологические

вопросы системы социологического мониторинга, инновационные методы и способы мониторинга качества стремительно развивающегося высшего образования. Исследованы методы, алгоритмы и комплекс технологических средств для организации данного вида мониторинга. Изучены процессуальные, прогнозные, нормативные и конкурентные критерии мониторинга системы высшего образования, их взаимосвязь, научно проанализирована совокупность параметров, характеризующих каждый критерий оценки деятельности высших учебных заведений.

Ключевые слова: мониторинг, социологический, системный, критерий, теоретический, методический, образовательный, качество, инновация.

Sabirova Umida,

Associate Professor of the National University
of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

Doctor of Sociology (DSc)

e-mail: umida-sabirova@yandex.ru

THEORETICAL AND METHODOLOGICAL BASIS FOR CREATION OF SOCIOLOGICAL MONITORING

ABSTRACT

The article examines the essence and content, structure and functions of the process of sociological monitoring of the quality of education, various systems and forms, its significance in the development of higher education. A comparative analysis of the definitions and descriptions given to this concept by various specialists was carried out, and definitions and characteristics were developed that meet the latest requirements and needs of our time. Theoretical and methodological issues of the sociological monitoring system, innovative methods and methods for monitoring the quality of rapidly developing higher education are also scientifically substantiated. Methods, algorithms and a set of technological tools for organizing this type of monitoring have been studied. Procedural, predictive, normative and competitive criteria for monitoring the higher education system, their relationship have been studied, a set of parameters characterizing each criterion for assessing the activities of higher educational institutions has been scientifically analyzed.

Key words: monitoring, sociological, systemic, criterion, theoretical, methodological, educational, quality, innovation.

KIRISH

Ijtimoiy jarayonlar boshqaruvining mukammalashuvi hozirgi sharoitda ta'lim tizimi axborotlarini qayta ishlab tahlil qilib, yig'ish tizimini ya'ni "sotsiologik monitoring" ni yaratishni talab qiladi. Bu tizim professor-o'qituvchilar tarkibini, talaba yoshlar, hisoblash matematikasini, zamonaviy hisoblash texnikasini va ijtimoiy masalalarni hal qila olish imkoniyatini hisobga olgan holda yaratiladi.

Monitoring – bu ma'lum bir sotsiologik jarayonlar yoki ijtimoiy holat haqidagi ma'lumotlarni doimiy olib turishni ta'minlab turuvchi sotsiologik tadqiqotlar o'tkazishning bir shaklidir. Sotsiologik amaliyotga bu tushuncha ekologiyadan kirib keldi. Ekologik tadqiqotlarda u atrof-muhitni uzluksiz nazorat qilishni bildiradi [1].

Monitoringning har xil turlarini amalga oshirish imkoniyati tegishli boshqaruv tizimlarining rivojlanish darajasiga bog'liq. Zamonaviy ishlarda monitoring ko'pincha o'lchov jarayonlari va o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyati natijalarini baholash bilan bog'liq bo'lib, monitoringning barcha turlarining tarbiyaviy aloqasi asosiy omildir [2].

Sotsiologik monitoring ijtimoiy jarayonlarni ilmiy darajada oldindan ko'ra bilish va bashoratlash uchun ishonarli asos bo'lib, boshqaruv jarayonini sotsiologik ta'minotini sezilarli yaxshilaydi. Kvalimetriyada monitoring ma'lumotlarini ta'lim yo'nalishlarining individual xususiyatlari asosida tahlil etish, shuningdek, tadqiqot ob'ektlarining umumiy populyatsiyasiga doir ma'lumotlar bilan taqqoslash imkoniyati mavjuddir. Hozirgi vaqtda monitoring tizimi, ayniqsa,

kvalimetrik va ko'p bosqichli monitoring tizimi, uning nazariy asoslanishiga ham, uni amalga oshirish uchun metodlar, texnologiyalar va amaliyotni ishlab chiqishga ham muhtoj [3].

METODOLOGIYA

Zamonaviy tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, "monitoring" tushunchasi pedagogikaga yaqin bo'lib, uning mohiyati va amalga oshirish mexanizmlarini tavsiflashda turli yondashuvlar mavjud. Uni kuzatish orqali (O.Garanina, O.Rumyanseva, L.Shadrinava boshqalar) [4], nazorat qilish orqali (I.Glushko, T.Zueva va boshqalar) [5], diagnostika orqali (V.Saprika, I.Shapavalova, L.Shmigirilova va boshqalar) [6], ekspertiza orqali (V.Boykov, A.Reshetnikov va boshqalar) [7] tavsiflashga harakatlar mavjud.

Amaliyotchilar boshqaruvni o'rganish va axborot bilan ta'minlash orqali monitoring tushunchasiga aniqlik kiritishga uringanlar. Shu bilan birga, ta'lim jarayonini tadqiq etish va islohot qilishda o'zbek olimlaridan M.Bekmurodov, N.Alikariyev, A.J.Xolbekov, V.A.Xakimov, B.Sh.Usmonov, S.A.Alimsaidova, R.I.Xalmurodov, D.Ro'zieva, A.A.Kabulov, U.N.Tashkenbaev, N.R.Raxmonov, D.M.Umarova, S.A.Ibragimovalar [8], faoliyat olib borishgan.

Sotsiologik tadqiqotlar uyushtirilganda, odatda, ijtimoiy muhit holatini aks ettiruvchi zarurroq ko'rsatkichlar aniqlanadi. So'ngra, takroriy tadqiqotlar usuli bilan me'yoriy va asosiy ko'rsatkichlardan foydalanilgan holda uzluksiz ravishda dinamikada axborotni yig'ib tahlil qilishni ta'minlaydigan sotsiologik o'lchovlar olib boriladi.

Tadqiqotni tashkil qilishning bu xos ko'rinishi kuzatilayotgan ob'ektning va jamiyat hayoti turli ko'rinishlari haqida nafaqat tezkor axborot olishni, balki jamiyat jarayonlari munosabatlarini va qonuniyatlarini ham ochib beradi. Voqealarning rivojlanish tendensiyasi va dinamikasining doimiy nazorati va ob'ektning zarur parametrlari o'zgartirilganda, katta axborot jadvali to'planganda monitoring turiga ko'ra ilmiy tadqiqotlarga talab yuzaga keladi. Bunday monitoring tizimlarga avval meteorologiya va seysmologiyada duch kelindi [9].

Hozirgi vaqtda bunday tizimlar statistika, bank ishi, birja, bandlik, kosmonavtika, mudofaa, ishlab chiqarishning turli tarmoqlarida, fanda, tabiatni muhofaza qilishda, ekologiyada keng ko'lamda qo'llanilmoqda. Sotsiologiyaga monitoring tadqiqotlar uslubiyati va amaliyoti ekologiyadan o'tdi.

Dinamikaning monitoring tadqiqotlarida va ekologik holatlarda sifat va miqdoriy ko'rsatkichlar ustida kuzatishlar hamda olingan natijalarni umulashtirish, tahlil qilish va baholash, mumkin bo'lgan o'zgarishlarni bashoratlash va baholash, shuningdek, ekologik jarayonlarning iqtisodiy hamda ijtimoiy natijalari nazorati qo'llanildi. Bunda tizimlarni barcha komponentlari haqida ma'lumotlar jamlamasi yaratildi. Bizning respublikamizda bunday tadqiqotlar Orolbo'yi mintaqasidagi ekologik muammolar munosabati bilan 90-yillarni boshlarida keng ko'lamda olib borildi. Katta hajmdagi ma'lumotlar jamlanmasi yig'ildi.

ASOSIY QISM

O'zMU sotsiologik tadqiqotlar markazi ham 1989-90-yillarda Orolbo'yi ekologik tangligi oqibatlarini o'rganishda qatnashdi. Monitoring yaratishdagi ishlar bu yillarda qo'llanilmagan bo'lsada, monitoring o'lchovlar yaratish g'oyalari aynan fundamental sotsiologik tadqiqotlar olib borilayotganda paydo bo'ldi. Sotsiologiyaga monitoring turi bo'yicha tadqiqotlar jamoatchilik fikri dinamikasini o'rganish maqsadida kirib keldi. Monitoring qo'llovchi eng taniqli markazlardan biri Gellap Instituti hisoblanadi (AQSh). Rossiya Federatsiyasida ham asosan monitoring turi turli saylovlar o'tkazishda, iste'molchilar talabini o'rganishda qo'llanilmoqda. Rossiyada sotsiologik tadqiqotlarni koordinatsion markazi akademik T.I.Zaslavskaya boshchiligidagi Rossiya Sotsiologiya Markazi sanaladi. 1994-yildan beri Moskvada turli ijtimoiy muammolar bo'yicha natijalar e'lon qilinuvchi "Monitoring axborot byulleteni" ilmiy jurnali nashr qilinib kelinmoqda. Afsuski, unda berilgan nashrlarda o'tkazilayotgan tadqiqotlar uslubi va uslubiyoti masalalari to'liq yoritilmasligi berilgan materiallardan foydalanish va ularni baholash unchalik talabga javob bermaydi [10].

Ba'zi rivojlangan davlatlarda va MDH da ta'lim sohalarida monitoringni yaratish va qo'llash bo'yicha qiziq natijalar olingan. Bizning mamlakatimizda ham mustaqil bo'lganimizdan so'ng, hamda ta'lim oliygohlarida islohotlarni amalga oshirish maqsadida sotsiologik monitoring yaratish bo'yicha ishlar boshlab yuborilgan. Xususan, O'zMU sotsiologik tadqiqotlar markazi hamda Oliy

ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan Oliy va o'rta-maxsus ta'lim monitoringini uslubiy asosini yaratish yo'lida ishlar olib borilmoqda. Oliy va o'rta-maxsus ta'lim monitoringi tizimining umumiy masalalarini struktura va tizim funksiyalari bilan mos ravishda aniqlanadi. Oliy ta'lim tizimi murakkab strukturalar majmuasidan iborat:

1. Oliy o'quv yurtlari – institutlar va universitetlar;
2. Malaka oshirish institutlari va fakultetlari;
3. O'rta-maxsus o'quv yurtlari;
4. Ilmiy-tadqiqot institutlari;
5. Oliy va o'rta-maxsus ta'limni boshqarishning Respublika va hududiy bo'limlari.

Oliy va o'rta-maxsus ta'limi tizimi jamiyatda quyidagi turli vazifalar majmuasini o'z ichiga oladi:

1. Malakali xodimlar tayyorlash: malakali xodimlar bilan jamiyat ijtimoiy talabini qondirish.
2. Tarbiyaviy: shaxsni tarbiyalash, insonni mustaqil faoliyatga tayyorlash. Shaxsga zarur ijtimoiy qadriyatlar tizimini singdirish. Sotsializatsiyalash.
3. Ijtimoiy: oliy ta'lim alohida sotsial qatlam hosil qilib, jamiyatda malakali mutaxassislarni yuzaga keltiradi.
4. Gumanistik: oliy ta'lim kasbiy bandlikdan farqli ravishda alohida qiymat aks ettiradi. Oliy ta'lim shaxsning o'ziga mos o'rin tanlashida, o'ziga xos ijtimoiy maqsadlarga erishishda shart-sharoitlar yaratadi.
5. Urbanistik: oliy ta'lim shaharlarda kadrlar salohiyatini kuchaytirishga yordam beradi.
6. Demografik: oliy ta'lim demografik jarayonlarga, ya'ni nikoh, tug'ilish, harakatchanlik va boshqalarga o'z ta'sirini ko'rsatadi.
7. Jamiyatning intellektual potensialini yaratish va takror yaratish qo'llash funksiyasi: oliy ta'lim tizimi bilim darajasining oshishini, ilmiy faoliyatga intilishdagi rag'batlantirishni ta'minlaydi. Ta'lim jarayonini kengayishi imkoniyatlarini rag'batlantiradi.
8. Iqtisodiy: mehnat unumdorligining oshishi va iqtisodning rivojlanish funksiyasi. Iqtisodning tezkorlik bilan o'sib borishi va aholining turmush darajasini ko'tarilishini ta'minlovchi zamonaviy, milliy industrial texnologiyani yaratish [11].

Oliy va o'rta-maxsus ta'lim monitoringi tizimining umumiy vazifalari ta'lim strukturalarining o'z funksiyalarini bajarishining samaradorlik darajasini nazorat qilishdir. Bunda asosiy e'tiborni ta'lim tizimi samaradorligini oshiruvchi quyidagi omillarga ko'proq e'tibor berishni maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz. Bu quyidagilardan iboratdir: ta'lim tizimining asosiy fondlar bilan ta'minlanganligi, ta'lim tizimining texnik va metodik jihatlari hozirgi zamon ta'lim tizimining talablariga mos kelishi, professor-o'qituvchilar va talabalarning ijtimoiy va huquqiy jihatdan ta'minlanganligi, ularning turmush sharoitlari va faoliyatlarini ta'minlash, o'quv jarayonlarini unumli tarzda boshqarishni ta'minlash, o'quv yurtiga zarur bo'lgan metodik va ilmiy adabiyotlar, binolar va texnik vositalar bilan talab darajasida ta'minlash. 2017-2022-yillarda O'zMU sotsiologik tadqiqotlar laboratoriyasi tomonidan professor-o'qituvchilar va talabalarni ijtimoiy holatini tadqiq etildi. Bu tadqiqot natijalari o'qitish sifati va samarasi professor-o'qituvchilar va talabalarning ijtimoiy holatiga ko'p jihatdan bog'liq ekanligini ko'rsatdi. Shuning uchun, monitoring tadqiqotlarning birinchi bosqichi sifatida professor-o'qituvchilar va talabalarning ijtimoiy holati dinamikasining nazorati tanlandi. Maxsus tayyorlangan dasturlar asosida respublikamizning yirik oliy o'quv yurtlarida aniq sotsiologik tadqiqotlar o'tkazildi.

Monitoring tizimini yaratishning dastlabki bosqichlari uslubiyati.

1. Texnik topshiriqlarni ishlab chiqish.
 - vazifani tanlash;
 - tadqiqotning vazifa va maqsadlarini belgilash;
 - sotsiologik tadqiqotlar dasturini yaratish;
 - ma'lumotlarni statistik qayta ishlash uchun matematik dasturlarni yaratish;
 - ob'ektning sotsiologik tadqiqotlarini o'tkazish;
 - olingan natijalarni ishlab chiqish, tahlil qilish va baholash;
 - ijtimoiy holatlarni tahlil qilishda iqtisodiy-sotsiologik, matematik, ijtimoiy-demografik

modellarni yaratish, ularni baholash, bashorat qilish;

–hisoblash texnikasi va aloqa vositalari yordamida jamlash;

–xarajatlar smetasini tuzish [12].

2. Ma'lumotlarning axborot bazasini yaratish.

–axborotlar bazasining texnik ta'minotini shakllantirish;

–axborot ta'minotini shakllantirish;

–lingvistik ta'minotni shakllantirish;

–dastur ta'minotini shakllantirish;

–huquqiy ta'minotni shakllantirish.

3. Monitoring tizimini texnik va tashkiliy jihatdan ta'minlash.

– hokimiyatning ta'limni boshqarish bo'limlarida muxbirlik;

– punktlarini ochish;

– har bir OTM va OO'MT da maxsus sotsiologik guruhlarini (2-5 kishi) tegishli yo'nalishdagi

bo'linmalar (laboratoriyalar yoki sotsiologiya kafedralari) bazasida kerakli texnika vositalari bilan, moddiy-moliyaviy ta'minot orqali yaratish;

– maxsus texnik aloqa vositalari ta'minoti (modem, kompyuter, elektron pochta, telefaks);

- nusxa ko'chirish texnikasi ta'minoti;

4. Monitoring tizimining funksional ta'minoti.

5. Oliy va o'rta-maxsus ta'lim monitoringi tizimining ishlash sxemasi.

Monitoring jihatleri

1-jadval

Iqtisodiy	Pedagogik	Ijtimoiy	Boshqaruv
Joriy harajatlar	Kasbiy kompetensiya	Yoshlar orasidagi munosabati	Mintaqaviy darajada: o'zaro ta'sir o'tkazish uchun sharoit yaratish
	Shaxsiy fazilatlar	Ta'lim muassasalari rahbarlarining munosabati	
Istiqboldagi harajatlar	Axborot-kommunikatsiya va ijtimoiy kompetentlik	Rahbariyat orasidagi munosabat	Ta'lim muassasasi darajasida: uskunalar va umumiy ko'rsatkichlarni baholash

Oliy ta'limning barqaror ishlash bosqichida ham, dinamik rivojlanish bosqichida ham muhim jihatlarni aks ettiruvchi mezon ta'rifi quyidagi jadvalda keltirilgan.

Ta'lim mohiyatini aks ettiruvchi mezonlar

2-jadval

№	Mezon	Mezonlar jamlanmasi
1.	Jarayonli	Ijtimoiy jihatdan maqbul bo'lgan usullar, metodlar, texnologiyalar orqali natijalarga erishish
2.	Samarali	Tez o'zgaruvchan dunyoda, demokratik jamiyatda yashash uchun zarur bo'lgan shaxsiy fazilatlarini tarbiyalash, bitiruvchilarning o'zini rivojlantirishga tayyorlik, ijtimoiy va individual iqtisodiy mas'uliyat, o'zini o'zi tanlash, insonparvarlik yo'nalishi; "ijtimoiy buyurtma" ning bajarilishi
3.	Bashoratli	Oliy ta'limning rivojlanish zonalari, o'sish istiqbollari, yoki uning ayrim elementlarini aniqlashga yo'nalgan
4.	Me'yoriy	Oliy ta'lim faoliyati muhim jihatlarining davlat ta'lim standartlariga muvofiqligi
5.	Raqobatbardoshi	Boshqa barcha oliy ta'lim muassasalaridagi holatlardan hamda real bozor talablaridan kelib chiqib kadrlar tayyorlashda yaxshi natijalarga erishish

Buning uchun biz tadqiqotimiz mobaynida asosiy va xizmat ko'rsatish mezonlarini ajratib ko'rsatish va ulardan foydalanishga intildik. Oliy ta'lim tizimini monitoring qilishning yuqoridagi mezonlarining o'zaro umumiy bog'liqligini quyidagicha belgiladik:

Asosiy mezonlar: *protsessual; samarali; bashorat qiluvchi.*

Xizmat qiluvchi mezonlari: *me'yoriy; raqobatbardoshlik.*

Monitoring tadqiqotlari miqdoriy baholashni talab qilganligi sababli, quyidagi jadvalda keltirilgan oliy o'quv yurtlari faoliyatining har bir mezonini tavsiflovchi parametrlar to'plamini shakllantirdik.

Maqsadli parametrlarning tanlangan monitoring mezonlariga muvofiqligi

3-jadval

№	Mezon ko'rsatkichlari	Parametrlar
1.	Jarayonli	<ul style="list-style-type: none"> - Zamonaviy rivojlanayotgan ta'lim texnologiyalaridan foydalanish. - Talabalarning individual salohiyatini rivojlantirish imkoniyati. - O'qituvchilar va talabalarning o'zaro munosabatlaridan qoniqish muhiti. - Jamoada nosog'lom nizolarning bo'lmasligi
2.	Samarali	<ul style="list-style-type: none"> - Kasbiy bilim, ko'nikma va ko'nikmalarni amalda egallash. - kelajakdagi kasbiy faoliyatining turli yo'nalishlariga yo'naltirish. - Talabalarning kasbiy faoliyatning eng samarali usullarini topish qobiliyati. - Talabalarning ijtimoiy o'zini o'zi himoya qilishga tayyorligi
3.	Bashoratli	<ul style="list-style-type: none"> - Jamoaning o'zini o'zi rivojlantirish rejimida ishlay olishi. - Oliy ta'lim muassasasi o'qituvchilari muammolarini hal qiluvchi boshqaruv yo'nalishi
4.	Me'yoriy	<ul style="list-style-type: none"> - Kasbiy tayyorgarlik mazmunining ta'lim standartiga muvofiqligi. - Kasbiy malaka tuzilmasi (tayyorgarlik doirasi)
5.	Raqobatbardosh	<ul style="list-style-type: none"> - Iqtisodiy barqarorlik. - Iqtisodiy mustaqillik. - Xodimlarning ish haqi darajasi. - Bitiruvchilarga bo'lgan bozor talabi

Sinov natijalariga asoslangan ta'lim monitoringi yuqorida ko'rsatilgan mezonlarga muvofiq ta'lim sifatini monitoring qilish va baholashning samarali vositasiga aylanishi mumkin. Bunday monitoring tizimida ob'ektiv ta'lim ma'lumotlarini soddalashtirish, tizimlashtirish va qulay shaklda taqdim etish mumkin, bu endigina shakllana boshlagan hamda o'zlari o'rganish ob'ektiga aylangan bir necha darajadagi monitoringni amalga oshirishga imkon beradi.

Jamiyat va ta'limning yangi ustuvor yo'nalishlari, ta'lim dasturlari va ta'lim shakllarining o'zgaruvchanligi, o'qitish usullari shuningdek, texnologiyasi o'quvchilarning tayyorgarligi hamda rivojlanish darajasida sezilarli farqlanishni keltirib chiqaradi [13]. Bunday sharoitda ta'lim monitoringi ta'lim tizimining turli o'quv dasturlari, tarkibiy qismlarining afzalliklari, kamchiliklarini aniqlashning eng muhim vositasi va uslubiga aylanadi.

Tavsiya etilgan maqsadli parametrlar to'plamini "ixchamlangan" shaklda ham taqdim etish mumkin va bunday "ixchamlash" ekspres tadqiqot o'tkazishga imkon beradigan quyidagi uchta integral ko'rsatkich asosida tizimli o'rganish imkonini beradi:

- mehnat bozorida bitiruvchilarga bo'lgan talab va taklif o'rtasidagi muvozanat ko'rsatkichi;
- iqtisodiy muvofiqlik ko'rsatkichi;

- shaxsning ta'lim ehtiyojlaridan qoniqish ko'rsatkichi.

Monitoring axborot xizmatlarini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari axborotni tizimlashtirish, uning samaradorligini, ob'ektivligini va mavjudligini oshirishdan iborat bo'lib, u monitoring yordamida hal qilib boriladi.

Monitoring samaradorligi ta'lim mazmunini aniqlovchi usullar va texnologiyalarni ishlab chiqish hamda optimallashtirish darajasi bilan belgilanadi, ular yordamida quyida keltirilgan aniq vazifalar hal etiladi:

- oliy ta'lim muassasasidagi ta'lim tizimining holatini doimiy ravishda kuzatib borish va bu haqda tezkor ma'lumot yetkazish;

- ta'lim tizimidagi o'zgarishlarni va ularni keltirib chiqaradigan omillarni o'z vaqtida aniqlash;

- oliy ta'lim muassasasi ta'lim tizimidagi salbiy tendensiyalarning oldini olish;

- oliy ta'lim muassasasining oliy ta'lim tizimidagi eng muhim jarayonlarning rivojlanishini qisqa va o'rta muddatli prognozlashni amalga oshirish;

- oliy ta'lim muassasasida oliy ma'lumotni metodik ta'minotini amalga oshirish samaradorligi va to'liqligini baholash;

Monitoring quyidagi tashkiliy va uslubiy talablarga muvofiq amalga oshirilishi kerak:

- monitoring ko'rsatkichlarining to'plami va shakli belgilangan vaqt ichida cheklangan va doimiy bo'lishi kerak;

- ko'rsatkichlar, ilmiy jarayon yetarli darajada chuqur o'rganilgan va ta'lim sifati darajasini yetarlicha aks ettiradigan o'quv jarayonining bunday hodisalarini qayd etishi kerak;

- ko'rsatkichlar ta'lim sifatini samarali boshqarish uchun muhim bo'lishi kerak;

- vaqti-vaqti bilan (yiliga kamida ikki marta) ishlatilgan ko'rsatkichlar to'plamiga o'zgartirish kiritilishi kerak;

- ta'lim monitoringi oliy ta'lim tizimidagi statistik kuzatuvlar, davriy ekspertiza so'rovlari, o'qituvchi va ma'muriy xodimlar, talabalar, shuningdek, aholi o'rtasida o'tkazilgan so'rovnomalarga asoslangan bo'lishi kerak;

- konkret sotsiologik tadqiqotlar anketa to'ldirgan holda standartlashtirilgan intervyular, fokus-guruh usullari bilan o'tkazish mumkin.

Demak, oliy ta'lim muassasasida ta'lim sifati monitoringi va uning samaradorligi uchun zarur shart-sharoitlarni amalga oshirishda tahlil qilinadigan quyidagi umumlashtirilgan ko'rsatkichlar aniqlandi:

- talabalarning ta'lim yutuqlari darajasi;
- ta'lim jarayonining psixologik qulayligi;
- analitik va sintetik tafakkur yuritish darajasi;
- ta'lim dasturlarini amalga oshirish uchun intellektual-texnologik sharoitlar sifati.

XULOSA

Shundan kelib chiqadiki, oliy ta'limda bilimlar berish va bitiruvchilarning kasbiy tayyorgarligi sifatini monitoring qilish mazkur mexanizmning oliy o'quv yurtini boshqarishdagi o'rni, uning yo'nalishlari, mazmuni hamda texnologik asoslarini belgilaydi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston Respublikasining mustaqillik g'oyalari va mafkurasiga monand kelajagi buyuk davlat qurish, ya'ni obod va ozod Vatan barpo qilish, erkin hamda hur jamiyatni shakllantirish, komil inson – shaxsni tarbiyalab yetishtirish, yuqori ma'naviyatli-madaniyatli jamiyat yaratish hamda yuqori darajadagi moddiy farovonlikka erishish zamonaviy bilimlar asosida mumkinligini va bu yo'l yagona to'g'ri yo'l ekanligini hisobga olgan holda, Vatanimiz ta'lim tizimini o'ziga xos va o'ziga mos model asosida taraqqiy ettirayotganimiz shuningdek, uning birinchi qaldirg'och natijalari xalqimizni cheksiz quvontirmoqda.

Zero, har bir inson Konstitutsiya, ya'ni, Qomusimizga asosan, ilm olishga huquqi bor ekan, bunday huquqni to'la amalga oshirish, ta'lim tizimining asosiy vazifasidir. Bunday vazifani amalga oshirish ta'lim tizimida Milliy Dastur hamda rejalarning amalga oshirish jarayonini doimo nazorat qilib turishni taqozo etadi. Zero, axborotlarsiz va ularning o'zgarib turishini tahlil qilib, turmushda uchrab turadigan salbiy holatlarni tezkorlik bilan tuzatmasdan turib, ta'lim tizimining unumli

darajada rivojlanishini ta'minlash mumkin emas. Bu masalani o'z vaqtida hal qilish ta'lim tizimida alohida boshqaruv mexanizmi, ya'ni monitoring tizimini yaratishni taqozo etadi.

Adabiyotlar/ Литература/ References:

1. Аверкин В. Региональная система управления образованием: мониторинг развития/ В.Аверкин, С.Аверкина, Е.Карданова и др. // Народное образование. – М., 2018. – №2. – С.156-164.
2. Андреев Ю.П., Коржевская Н.М. и др. Социальные институты, содержание, функции, контроль. – Свердловск, 1989; Вебер М. Наука как призвание и профессия / / Самосознание европейской культуры XX века. – М., 1991.
3. Кравченко А. И. Социология: Хрестоматия. Для студ. вузов. – М.: Издательский центр «Академия», 1997.
4. Гаранина О.Д., Румянцева О.С. Социологический мониторинг качества образовательной среды // Актуальные вопросы современной науки. 2010. №15. URL:<https://cyberleninka.ru/article/n/sotsiologicheskii-monitoring-kachestva-obrazovatelnoy-sredy> (дата обращения: 13.12.2021); Шадрина Л.Ю. Социологический мониторинг как средство информационного сопровождения оценки эффективности социальных технологий // Известия Рос. гос. пед. ун-та им. А.И. Герцена. - 2010. - № 126. - С. 319-325.
5. Глушко И., Зуева Т. Мониторинг качества образовательной деятельности теоретико-правовой и практический аспекты//Перспективы Науки и Образования. 2018. 4 (34). Международный электронный научный журнал (ISSN 2307-2334). rpojjournal.wordpress.com/archive18/18-04/
6. Сапрыка В.А., Шапавалова И.С., Шмигирилова Л.Н. Социологический мониторинг внутривузовской среды // Современные проблемы науки и образования. 2012. №2. URL: <https://science-education.ru/ru/article/view?id=5966> (дата обращения: 13.12.2021).
7. Бойков В.Э. Социологический мониторинг в социальном управлении // Социология власти. 2006. №4. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/sotsiologicheskii-monitoring-v-sotsialnom-upravlenii> (дата обращения: 13.12.2021); Решетников А.В. Технология социологического исследования как методическая основа медико-социологического мониторинга // Социология медицины. - 2010. - № 1. – С. 3-12.
8. Bekmurodov M.B. Zamonaviy boshqaruv sotsiologiyasi. –Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2020. - B.27; Аликариев Н.С. Олий таълим сифати менежменти тизимини ривожлантириш концепцияси//“Социология фанлари” (www.tadqiqot.uz/soci) электрон журнали. №1. – Тошкент, 2020. – Б. 7-18. DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9297-2020-1>; Xolbekov A.J. Oliy ta'lim muassasasini boshqarishning 21 tamoyili. // Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti ijtimoiy fanlar fakulteti sotsiologiya va ijtimoiy ish kafedrasida "Ijtimoiy fanlar: holati, tutash manzillari va ta'lim masalalari" mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiya maqolalari to'plami. -Toshkent: O'zMU, 2016. -B. 13-15; Hakimov V.A. Pedagogik oliygohlarda sifat menejmenti tizimining bosqichli ishlab chikilishining qiyyinchiliklari. – Toshkent: 2015. - B. 66-68 b.; Usmonov B.Sh. Ta'lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasi va innovatsion hamkorlik. Ilmiy-uslubiy qo'llanma. - Toshkent, 2017; Алимсаидова С.А. Место педагогических технологий в обучении в вузе / Молодой ученый. 2017. № 1 (135).- С. 432-434. / URL:<https://moluch.ru/archive/135/37634/> (дата обращения: 16.12.2021); Халмурадов Р.И. Высшее образование: критерии и показатели качества // Высшее образование сегодня. 2019. №4. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/vysshee-obrazovanie-kriterii-i-pokazateli-kachestva> (дата обращения: 16.12.2021); Ro'zieva D. Oliy ta'lim muassasasi talabalarida milliy iftixor tuyg'usini shakllantirishning ilmiy-pedagogik asoslari: Ped. fan. dok. ... diss. – Toshkent: 2007; Кабулов А.А. Инновационный менеджмент в образовании // Том 2 сборник научных трудов 7-й Международной конференции 12 ноября 2020 года. – С.56-60; Ташкенбаев У.Н. Узбекистан на пути

- интеграции в международное образовательное сообщество // *Время перемен*. 2020. – С. 2-8; Raхmonov N.R. Oliy ta'lim tizimida ta'lim sifatini ta'minlash va uni baholashning o'ziga xos xususiyatlari // *Xalqaro moliya va hisob ilmiy elektron jurnali*. № 4-5, avgust-oktabr. – Toshkent, 2018. – В. 1-8; Умарова Д.М., Ибрагимова С.А. Роль стратегического направления внедрения менеджмента качества образования в вузах Республики Узбекистан // *Ekonomickétrendy* № 4: НИЦ «Социосфера». – Прага, 2016. – С. 45-48.
9. Бурдакова О.П. Мониторинг как механизм управления качеством образования школьников/ О.П.Бурдакова // *Управление качеством образования*. – М., 2017. – №3. – С.53-69.
 10. Курбанов А.С. Мониторинг концепции инновационного развития образовательного процесса/ А.С.Курбанов, А.Ф.Костенко // *Инновации в образовании*. – М., 2016. – №10. – С.121-129.
 11. Фоменко С. Мониторинг как способ управления качеством образования/ С.Фоменко // *Народное образование*. – 2019. – №4. – С.110-119.
 12. Шишов С.Е., Кальней В.А. Мониторинг качества образования в школе/ С.Е.Шишов, В.А.Кальней. – М.: Российское педагогическое агентство, 2018. – 354с.
 13. Кравченко А. И. Социология: справочное пособие. – М.: Моск. лицей, 1996.

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

1-МАХСУС СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ
СПЕЦИАЛЬНЫЙ НОМЕР-1

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES
SPECIAL ISSUE-1

MAQOLADA KELTIRILGAN DALILLARNING TO'G'RILIGI UCHUN MUALLIF MAS'ULDIR | АВТОР НЕСЕТ ОТВЕТСТВЕННОСТЬ ЗА ДОСТОВЕРНОСТЬ ФАКТОВ ИЗЛОЖЕННЫХ В СТАТЬЕ

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000